

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 173 (1234), 2024-yil 28-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNI
YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
27-avgust kuni mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan
Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova
boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuvda O‘zbekiston va Belarus o‘r-tasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida Natalya Kochanova davlatimiz rahbariga Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston Prezidenti joriy yil fevral oyida oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq ikki tomonlama hamkorlik jadal rivojlanayotgani, muloqot va almashinuvlar faollashayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, sanoat kooperatsiyasi loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, hududlararo ishbilarmonlik aloqalari kuchaymoqda, madaniy-gumanitar dastur doirasidagi tadbirlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Shu kunlarda Toshkent shahrida o‘tkazilayotgan parlamentlar doirasidagi qo‘shma tadbirlar, jumladan, O‘zbekiston Oliy Majlisi-dagi uchrashuvlar va ikkinchi ayollar biznes forumining samarali natijalari yuksak baholandi.

Ikki mamlakat o‘rtasida savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi hamkorlikning aniq loyihalarini ilgari surishga qaratilgan faol parlamentlararo muloqotni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

“KO‘P O‘LCHOVLI
KAMBAG‘ALLIK BO‘YICHA
GLOBAL MULOQOT”
XALQARO KONFERENSIYASI
ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Siz, azizlarni mehmondo‘st O‘zbekiston zaminida Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha yuqori darajadagi konferensiyaning ochilishi bilan samimiy qutlayman. Anjuman ishida ushbu sohaning taniqli ekspertlari ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda dunyoda davom etayotgan turli mojarolar, gumanitar, epidemiologik va iqlim inqirozlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda kambag‘allikning barcha ko‘rinishlarini qisqartirish borasidagi sa’y-harakatlarga jiddiy tahdid solmoqda.

Ana shunday sharoitda dunyoning ko‘plab davlatlari nufuzli ekspertlar muloqotiga katta qiziqish bildirib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha eng dolzarb muammolarga samarali yechim topishga umid bog‘lamoqda.

Qadrlı do‘stlar!

Joriy yilda mazkur nufuzli tadbirga O‘zbekistonning mezbon sifatida tanlangani mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning xalqaro e‘tirofi bo‘ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

So‘nggi besh yilda ilg‘or xorijiy yondashuvlar hamda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, eng quyi bo‘g‘in — mahalla darajasiga tushgan holda kambag‘allikka qarshi kurashish borasida muvaffaqiyatli tajriba yaratildi.

Eng avvalo, aholi daromadlarini oshirishda fuqarolarning kasb-hunar egallashi va o‘z biznesini boshlashiga ko‘maklashishni ustuvor vazifa etib belgiladik.

Hokimning mahalladagi yordamchilari instituti bu borada aholiga har tomonlama ko‘mak bermoqda. Birgina joriy yilning o‘zida 250 ming ishsiz fuqarolarni kasblarga o‘qitish, 2 million aholini tadbirkorlikka jalb qilish yuzasidan katta hajmdagi ishlar olib borilmoqda.

Ikkinchidan, Yangi O‘zbekistonda har bir fuqaroning yashash sharoitini yaxshilash, ta’lim va tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirish inson qadrlini ulug‘lashga qaratilgan islohotlarimizning asosiy yo‘nalishi bo‘lib kelmoqda.

2024-yilning o‘zida bog‘cha va maktablar barpo qilish, tibbiy xizmatni kengaytirish, mahallalarda ichimlik suvi, elektr energiyasi, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun byudjetdan 31,5 trillion so‘m ajratildi. Eng muhimi, ushbu loyihalarni amalga oshirishda “Tashabbusli budjet” tizimi orqali mahallalarning ishtiroki kengayib bormoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirib, davlat ko‘magiga muhtoj

oilalarga sifatli xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini keskin oshirdik. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi, tumanlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Natijada 2 million 300 mingdan ziyod muhtoj oilalar, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironlari bo‘lgan shaxslar kafolatlangan ijtimoiy himoya bilan qamrab olindi. Bu — 2017-yilga nisbatan 4 barobar ko‘p, demakdir.

Shu o‘rinda bir masalaga e‘tiboringizni qaratmoqchiman: muhtoj oilalarda tug‘ilgan bolalarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish bo‘yicha barcha imkoniyatlarni yaratib berish davlatimiz siyosatida muhim o‘rin egallagan.

Ijtimoiy kelib chiqishdan qat’i nazar, yurtimizdagi barcha bolalarning har tomonlama yetuk inson bo‘lib kamol topishiga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Xususan, keyingi yillarda bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 27 foizdan 74 foizga oshirildi. Bolalar o‘rtasidagi kambag‘allik darajasi oxirgi uch yilda 22 foizdan 14 foizga pasaydi.

Bundan tashqari, yoshlarni yuqori daromadli va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirildi, har bir tumanda IT markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Umuman, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda ko‘makka muhtoj 3 million aholining turmush sharoitini yaxshilab, kambag‘allik darajasini 17 foizdan 11 foizga tushirishga erishdik.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Respublikamizda ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng qamrovli siyosatni izchil davom ettirib, kelgusi uch yilda kambag‘allik darajasini 7 foizgacha pasaytirishni maqsad qilganmiz.

Bunday yuksak maralarga erishishda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur va loyihalarni amalga oshirish orqali yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishdan manfaatdor.

Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha o‘zaro muloqot ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiladi, uning yakunida ishlab chiqiladigan amaliy taklif va tavsiyalar jahon miqyosida kambag‘allikni kamaytirishda yangi qadam bo‘ladi, deb umid qilaman.

Fursatdan foydalanib, konferensiya faoliyatiga, uning barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOEY,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

ENERGIYA TEJAMKORLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-avgust kuni energiya tejamkorligini ta’minlash, muqobil quvvatlardan foydalanishni kengaytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda energiya resurslariga talab yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga mos ravishda yangi stansiyalar qurilib, manbalar ko‘paytirilmoqda.

Shu bilan birga, joriy yil boshida hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan edi. Davlatimiz rahbarining iyulda Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida ushbu rejani ilmiy asoslangan holda 2 baravar oshirib bajarish yo‘llari ko‘rsatib o‘tildi.

Shundan so‘ng Farg‘ona politexnika instituti olimlari tomonidan Farg‘ona tumanidagi elektr iste’moli o‘rganildi. Misol uchun, 4,6 ming xonadon va 233 ta tadbirkorga xizmat qiladigan “Log‘on” podstansiyasidagi yillik yo‘qotish 5 million kilovatt/soatni tashkil qiladi. Bu tabiiy yo‘qotish uchun belgilangan me‘yordan 1,5 baravar ko‘p.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur podstansiyadan elektr oladigan 113 ta transformatoridagi yuklamani teng taqsimlash orqali 765 ming kilovatt/soat yo‘qotishning oldini olish mumkin. Eng muhimi, bunga xarajat talab qilinmaydi. Tuman elektr korxonasida boshqaruv to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa bo‘ladi.

Yoki suv nasoslariga xizmat ko‘rsatuvchi 44 ta transformatorga reaktiv quvvat batareyalari o‘rnatilsa, yo‘qotish yiliga 1,1 million kilovatt/soatga kamayadi, xarajat bir yilda o‘zini oqlaydi.

Umuman, Farg‘ona tumanidagi 14 ta podstansiyada 15,5 million kilovatt/soat yoki yiliga o‘rtacha 6 milliard so‘mlik ortiqcha yo‘qotish hisob-kitob qilingan. Ish yuqoridagidek omilkorlik bilan tashkil qilinsa, elektrdan iqtisod qilish rejasini bajarish mumkin.

Mamlakatimiz bo‘yicha 1 ming 800 ta shunday podstansiya va 100 mingga yaqin transformator bor. Mutasaddilarga ushbu tajribani boshqa hududlarda ham joriy qilib, energiyani tejash bo‘yicha ko‘rsatmalari berildi.

Qoraqalpog‘istonda gazni tejash bo‘yicha yaxshi natija bor. Hozirgacha 95 mingga xonadondagi eskirgan “gorelka” energiyatejamkoriga almashtirilgani va isitish tizimi izolyatsiya qilingani hisobiga, yiliga 145 million kub metr gaz iqtisod bo‘lyapti. Yana 16 ming ehtiyojmand oilaga mahalliy byudjet hisobidan shunday pechlar qo‘yib berish boshlangan. Bu orqali 20 million kub metr gaz iqtisod qilinib, ehtiyojmand aholi ixtiyorida 12 milliard so‘m qoladi.

Shu tarzda yurtimizdagi 1 million xonadonning isitish tizimini energiyatejamkoriga almashtirish vazifasi qo‘yildi.

Yurtimizda 2 ming 349 ta yirik gaz iste’molchisi bor. Ularning orasida omilkorlari ham ko‘p. Masalan, Ohangarondagi kafel ishlab chiqaruvchi korxona o‘zidan chiqqan issiqlikdan qayta foydalanish texnologiyasini joriy qilgan. Lekin yirik iste’molchilarning bor-yo‘g‘i 25 foizida zamonaviy gaz tejoychi uskunalar o‘rnatilgan.

Davlatimiz rahbari bunga alohida to‘xtalib, viloyat hokimliklari va Energoinspeksiya mana shunday masalalar bilan shug‘ullanishi kerakligini ta’kidladi. Yirik gaz iste’molchisi bo‘lgan korxonalarda ilmiy-texnik asoslar bilan energiyatejamkor texnologiyalar o‘rnatish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ma‘lumki, shu yil 23-avgustdagi Prezident farmoniga asosan, Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya — “O‘zenergoinspeksiya” Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazildi. Bu uning imkoniyatlari va ish samaradorligini oshiradi.

Endi shunday ishlarni eng yirik elektr iste’molchilari bo‘yicha ham qilish kerakligi aytiladi.

O‘ZA

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!

O‘ZGARAYOTGAN HUQUQIY TAFAKKUR HODISASI
mamlakat taraqqiyoti, inson qadrlini ulug‘lashda o‘qildizdir

O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri Akbar TOSHQULOVning “Yangi O‘zbekiston”
va “Ипавада Босмoka” gazetalari bosh muharririga bergan intervyusi

Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar jarayonining amaliy natijasi o‘laroq, bugungi kunda aholi farovonligi va yurtimiz taraqqiyotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. O‘z navbatida, O‘zbekistonni yanada yuksaltirish yo‘lida barcha tizim va yo‘nalishlardagi islohotlarni chuqurlashtirish, samaradorligini kuchaytirish borasida ham tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilyapti.

Mana shunday o‘zgarishlar jarayonini to‘g‘ri va xolisona yoritish, islohotlar mohiyatini yurtidoshlarimizga o‘z vaqtida yetkazish ommaviy axborot vositalari zimmasidagi mas’uliyatli vazifadir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Ипавада Босмoka” gazetalari tahririyati mamlakatimizdagi vazirlik va idoralar rahbarlari bilan intervyular tashkil etib kelmoqda. Ushbu an‘anani davom ettirgan holda bu galgi suhbatdoshimiz adliya vaziri Akbar TOSHQULOV bo‘ldi.

— Avvalo, bizga intervyu berishga rozilik bildirganingiz uchun minnatdorlik izhor etamiz. Suhbatimizni yangi O‘zbekistondagi eng katta islohotlardan biri, milliy taraqqiyotimizning muhim kafolati — xalq bilan muloqot tizimidagi o‘zgarishlardan boshlasak.

Bu borada barcha tizim rahbarlari oldiga juda katta vazifalar qo‘yilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning joriy yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini oshirish hamda icham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi farmonida ham Adliya vazirligi zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklandi. Aholi muammolarini uyma-uy yurib o‘rganish va hal etish yuzasidan qo‘shimcha vazifalar shular jumlasidan.

Ushbu mas’uliyatli vazifani sifatli bajarish uchun vazirlik tomonidan qanday choralar ko‘rilmoqda? Aniq natijalar nimalarda ko‘zga tashlanadi?

— Davlat tashkilotlari o‘zining eng asosiy vazifasi sifatida xalqning og‘irini yengil qilishga kirishgan, ya’ni aholi bilan muloqot qilib, ularning muammolarini aniqlash va hal etish ustuvor vazifaga aylandi. Mana shu jabhada vazirligimizga ham muhim vazifalar yuklatilmoqda. Jumladan, yuqorida aytilgan farmon bilan Adliya vazirligi yangicha ishlash tizimiga o‘tdi. Bunda aholining huquqiy muammolarini mahallalarda hal etish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Davomi 3-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

E'tirof

Najib SAVIRIS:

“O'ZBEKISTON PREZIDENTINING ISLOHOTLARI XORIIY INVESTORLARGA ISHONCH VA KUCH BAG'ISHLAMOQDA”

Misrning yetakchi “Orascom Investment Holding” kompaniyasi raisi “Dunyo” axborot agentligi savollariga javob berdi

O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi arafasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga salmoqli investitsiya kiritib kelayotgan Misrning yetakchi “Orascom Investment Holding” kompaniyasi asoschisi Najib Saviris “Dunyo” axborot agentligi uchun intervyu berdi. Unda misrlik tadbirkor O'zbekistonda xorijlik ishbilarmonlarga yaratilgan shart-sharoitlar, qulay investitsiyaviy muhit va yurtimiz bilan bog'liq istiqbolqadaj rejalari haqida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

— Saviris janoblari, O'zbekistonda bir necha bor bo'lgansiz, xususan, joriy yil may oyida o'tkazilgan III Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etdingiz. O'zbekistonni yaxshi bilgan inson sifatida mamlakatimizning iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

— Forumda dunyoning 93 mamlakatidan davlat va xususiy sektor vakillarining yuqori darajada qatnashgani, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa xalqaro moliya institutlarining ishtiroki menda katta taassurot qoldirdi. O'ylaymanki, bu O'zbekiston hukumati bo'lgan ishonch va mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha kuchli strategiyadan dalolat beradi. Bu ishonch energetika, shahar infratuzilmasi, oziq-ovqat va tog'-kon sanoati kabi turli sohalarda umumiy qiymati 26,6 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyaviy bitimlar imzolaniishi orqali o'z ifodasini topdi.

Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari va hukumat a'zolarining forum delegatlari bilan muloqotni muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakat iqtisodiy o'sishi hamda taraqqiyoti uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga barcha zarur ko'mak ko'rsatilishi haqidagi chaqiriqlar xorijiy investorlarga aniq va ishonchli ishora bo'ldi.

Forumni yuqori saviyada tashkil etish va uni o'tkazish uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar O'zbekistonni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qabul qilishga tayyor davlat sifatida namoyon etgani yanada e'tibordir.

— O'zbekiston Prezidenti bilan uchrashuvlar investitsiyaviy hamkorlik va iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilishgizga qanday ta'sir ko'rsatdi?

— Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari bilan ikki marta uchrashish sharafiga muvassas bo'lganimdan juda baxtiyorman. Ul zot juda iliq, sezgir va sizni uzoq vaqtdan beri tanishdek samimiy munosabatda bo'ladigan hamda O'zbekistonni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhitga



aylantirishga qaratilgan qat'iy maqsadiga ega inson sifatida namoyon bo'ladi.

Davlatimiz rahbari amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar, xususan, valyuta bozorini liberalashtirish, bank sektori va pul-kredit islohotlarini erkinlashtirish, davlat korxonalarini tarkibiy o'zgartirish hamda xususiy lashtirish va boshqa ko'plab ishlar xorijiy investorlarga ishonch va kuch bag'ishlamogda.

Bundan bir yildan ko'proq vaqt oldin bo'lib o'tgan birinchi uchrashuvimiz chog'ida Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari mening O'zbekistonga investitsiya kiritish bo'yicha rejalarni diqqat bilan tingladi va tegishli mas'ullarga barcha zarur yordamni ko'rsatishga aniq va tezkor topshiriqlar berdi. Natijada shakar ishlab chiqarishga qariyb 400 million AQSH dollari investitsiya kiritdik, shuningdek, oltin va mis qazib olishga esa 20 million AQSH dollaridan ziyod dastlabki investitsiyani jalb qildik.

Ish jadvali tig'iz bo'lishiga qaramay, forum davomida Janob Prezident meni qabul qildi va har doimgidek loyihalarimizning borishi, takliflarimiz haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan tingladi hamda iqtisodiy dasturlarimizni amalga oshirishni tezlashtirish bo'yicha ishlariga ko'maklashishini alohida aytib o'tdi. Investorlar O'zbekistondan ana shunday e'tiborni kutmoqda va bunday e'tibor o'z samarasini berishi shubhasiz.

— 2016-yildan buyon O'zbekistonda salmoqli islohotlar amalga oshirildi. Bu yangilanishlar samarasi o'laroq, mamlakatimizning xalqaro maydonda ishonchli hamkor sifatidagi imiji mustahkamlandi. Siz O'zbekistonda yana qaysi sohalar xorijiy investitsiyalar uchun eng istiqbolli deb hisoblaysiz?

— Biz hozirgi kunda oziq-ovqat va tog'-kon sanoatiga e'tibor qaratyapmiz va jiddiy qadamlar tashlashga kirishdik. Shuningdek, ko'chmas mulk va mehmonxona biznesining turli imkoniyatlarini o'rganyapmiz.

Yuqorida aytganimgdek, O'zbekistonda qanday lavlagi plantatsiyalari uchun qariyb 12 ming gektar yerning meliorativ holatini yaxshilash va qayta ishlashni o'z ichiga olgan shakar ishlab chiqarish zavodini tashkil etish loyihasini amalga oshirmogdamiz. Loyiha ishga tushganidan so'ng yiliga 200 ming tonna shakar, shuningdek, shinni va chorva ozuqasi kabi qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ushbu strategik korxona shakar importini kamaytirish orqali O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bu valyuta zaxiralarini saqlab qolish imkonini beradi. Biz ushbu loyihani iqtisodiy o'sish hamda to'g'ridan to'g'ri va bilvosita ish o'rinlari yaratish katalizatori sifatida ko'ryapmiz.

Tog'-kon sanoatiga kelsak, O'zbekistonda qimmatbaho va rangli metallarning ulkan salohiyati mavjud. Shuningdek, mamlakatimiz tog'-kon sanoatida boy zaxiralarga ega eng jozibador sheriklardan biridir. O'zbekiston Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan Navoiy viloyatidagi “Shimoliy Bukantau” mis-molibden-oltin loyihasini o'zlashtirish bo'yicha 20 million AQSH dollari miqdoridagi dastlabki investitsiya evaziga konessiya shartnomasini imzoladik. Dala ishlari allaqachon boshlangan, sentyabr oyida esa burg'lash ishlariga kirishiladi.

— Aytinch, O'zbekiston Sizda qanday taassurot qoldirdi va mamlakatimizning qaysi jihatlarini ko'proq qadrlaysiz?

— O'zbek xalqining mehribonligi, mehmondo'stligi, ochiqko'ngilligi va o'z mamlakati ravnaqiga e'tibor qaratishi menga juda yoqdi. Bu jihat samolyotdan mamlakatimiz ostonasiga qadam bosganimdan boshlab vazirlar darajasida ham, mehmonxonada ma'murlar, restoranlarda ofitsiantlar va turli soha vakillari bilan muloqotlarda yaqqol sezildi. Bunday samimiyligi va hurmat unutilmas taassurot qoldirdi. O'zbek xalqining o'ziga xos xislatlarini juda ko'p marotaba eslayman va qadrlayman.

— O'zbekiston Mustaqilligi kuni bayrami arafasida tilaklaringizni bildirishingiz mumkin.

— Milliy bayram — Mustaqillik kuni bilan O'zbekiston xalqini, mamlakatimiz rahbariyatini chin dildan tabriklayman. Tarixan qisqa davrda yangi O'zbekiston siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqda hamda xalqaro maydonda o'z nufuzini mustahkamlamoqda. Bundan keyin ham maqsadlarimizga erishishimizni va tanlagan yo'lingizda matonat tilayman. Jadval sur'at bilan yangi O'zbekistonni kuchli va taraqqiy etgan davlatga aylantirishgizga ishonchim komil.

“Dunyo” AA
Qohira shahri

Xalqaro forum

O'ZBEKISTON KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA GLOBAL MULOQOT MARKAZIGA AYLANDI

Poytaxtimizda ko'p o'lchovli kambag'allik bo'yicha hamkorlik xalqaro tarmog'ining (MPPN) 9-yig'ilishi bo'lib o'tmoqda. Ushbu tadbir dunyoning 63 davlati va 30 dan ortiq xalqaro tashkilotdan kelgan yetakchi siyosatchi, iqtisodchi va ekspertlarni bir davrarga jamladi. Ular uch kun mobaynida O'zbekistonning kambag'allikni kamaytirish tajribasi va xalqaro amaliyot yuzasidan o'rtoqlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan BMT Taraqqiyot dasturining yuritmizdagi vakolatxonasi, Oksford kambag'allikka qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish tashabbusi (OPHI) ko'magida tashkil etilgan xalqaro forumni o'tkazish uchun aynan O'zbekiston tanlanishi bejiz emas. Bu yuritmizda keyingi yillarda kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha erishilayotgan o'ziga xos natijalar, inson qadrini yuksaltirishga yo'naltirilgan egzu ishlarning samarasi xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Tadbir avvalida Prezidentimizning yig'ilish ishtirokchilariga tabrigi o'qib eshittirildi. Unda qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda har bir insonning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, ta'lim va tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirish borasida keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmatni kengaytirish, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 31,5 trillion so'm investitsiya kiritilgani xalqimizning hayot sifatini yaxshilash, yoshlarga zamonaviy andazalar bo'yicha bilim berishda muhim omil bo'layotir.

2021-yilda milliy kambag'allik chegarasi darajasini baholashning standartlashtirilgan usuli joriy etildi. Bu ushbu yo'nalishda yuritilayotgan siyosatning ta'sirini baholashda muhim vositaga aylandi. Ijtimoiy himoya yagona reyestri yaratildi. Bu esa aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga zamin bo'ldi.

Mahallabay ishlash tizimi yaratilishi esa kambag'allikni bartaraf etishda yanada muhim qadamdir. So'nggi yillarda ushbu tizim orqali 977,6 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihasiga 1,7 milliard dollar mikroredit, 152 ming aholiga qariyb 52

million dollar subsidiya ajratildi. Natijada 2 millionga yaqin aholi kambag'allikdan chiqarildi. Ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, davlat ko'magiga muhtoj oilalarga sifatli xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilaypti. Shu maqsadda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Tumanlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada ijtimoiy himoya tizimi orqali 2 million 300 mingdan ziyod oila qamrab olindi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 4 barobar ko'p. Shu bilan birga, keyingi uch yilda mamlakatimizda ko'makka muhtoj 3 million aholining turmush sharoiti yaxshilani, kambag'allik darajasi 17 dan 11 foizga kamaydi.

Aholini zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish, ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ham yildan yilga kengaymoqda. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga mikroredit ajratish, aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamin kengaytirish maqsadida mahallabay tizim yo'lga qo'yildi. Ushbu chora-tadbirlar 2,3 milliondan ortiq aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga yordam berdi.

Bugungi kunda butun dunyoda kambag'allikka qarshi kurashish kun tartibiga ko'tarilgani bejiz emas. Agar raqamlarga nazar tashlasak, bu muammoning ko'lami yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni dunyoda taxminan bir milliarddan ziyod aholi nochor sharoitda hayot kechiradi. Bu shuncha insonning kam ish haqi olishi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan yetarli darajada foydalana olmasligi, sanitariya-gigiyenaga zid sharoitda yashashi va toza ichimlik suvdan bebahra ekanini anglatadi. Tabiiyki, bu muammolar aholi salohiyatini ro'yobga chiqarishiga to'sqinlik qiladi. Mazkur holat nafaqat muayyan hudud yoki davlat miqyosida, balki butun dunyoda barqaror rivojlanishga to'siq bo'ladi.

Shu bois, bunday muammolarga qarshi kurashish BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Xususan, 2030-yilga borib dunyo bo'yicha kambag'allikning barcha ko'rinishlariga barham berish birinchi maqsad hisoblanadi. Bu jarayonda kambag'allikka olib keladigan sabablarni aniqlash, ularning ta'sirini baholash, joylarda ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda BMT Taraqqiyot dasturi yordamida ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini o'lchash loyihasini amalga oshirish orqali maxsus konsepsiya joriy etilmoqda. Ushbu tadbir Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va kambag'allikka qarshi kurashda ana shunday xalqaro standartlarga sodiqligimizni tasdiqlash yo'lida muhim qadam bo'ldi.

BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujii ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarning ahamiyati haqida to'xtalar ekan, “BMT Taraqqiyot dasturi odamlar hayotini chinakamiga o'zgartiradigan siyosat yuritish uchun mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bunga ish o'rinlari yaratish va malaka oshirish, infratuzilma va yangi bozorlarga kirishni yaxshilash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va kredit olish imkoniyatini ta'minlash orqali mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kiradi”, dedi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori Obid Hakimovning qayd etishicha, O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'p o'lchovli kambag'allikka qarshi kurashish borasida qilinayotgan ishlar dunyo bo'ylab millionlab odamning hayotini o'zgartirishi mumkin bo'lgan muhim yechimlarga asos yaratadi.

Forumda ishtirokchilar jahon miqyosida kambag'allikka qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirishga qaratilgan tajriba va natijalar bilan o'rtoqlashdi. Milliy dasturlar uchun ko'p o'lchovli kambag'allik indeksidan foydalanish, kambag'allikni o'lchashda innovatsiyalar va mintaqaviy hamkorlik zarurati kabi muhim mavzular muhokama qilindi.

Forumning uchinchi kunida Samarqanda amaliy safar uyushtirilishi kutilmoqda. Unda ishtirokchilar mamlakatimizda kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha qilinayotgan ishlar, jumladan, mahalliy hamjamiyatlar darajasida faol ishlayotgan mahallabay tizimini o'rganadi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Tanlov

ENG ULUG', ENG AZIZ VATAN TUYG'USI

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari, nashriyot hamda matbaachilik ravnaqini yangi bosqichga ko'tarishga alohida urg'u berilmoqda. Bunda sohaning moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash bilan birga ijod ahlining mashaqqatli mehnatini moddiy va ma'naviy jihatdan munosib rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilaypti.



Prezidentimizning 2024-yil 18-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga

tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori doirasida “Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” bosh

g'oyasi ostida “Eng ulug', eng aziz” an'anaviy ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tashkilotchiligidagi Yozuvchilar uyushmasi, Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy media birlashmasi, Respublika “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi, Badiiy akademiya, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamkorligida tashkil qilingan tantanali tadbirida jurnalistlar, shoir va yozuvchilar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Bu yilgi tanlovda ijodiy ishlar quyidagi 7 ta nominatsiya: “Bosma OAV xodimlarining eng yaxshi jurnalistik ishlari”, “Televideniye va radio ijodkorlarining eng yaxshi materiallari”, “Internet jurnalistikasi”, “Publitsistik janrdagi eng yaxshi kitob uchun”, “Yozuvchi va shoiraning eng yaxshi badiiy asarlari”, “Tasviriy san'at, foto va dizayn ishlari”, “Kino san'ati asarlari” asosida bo'ldi.

Tanloving respublika bosqichiga nominatsiyalar bo'yicha 300 dan ortiq ijodkordan, ya'ni jurnalistlar, yozuvchi-shoiralar,

kino san'ati, tasviriy san'at, foto va dizayn ishlari bo'yicha mutaxassislardan 2100 dan ziyod ijodiy ish qabul qilindi.

Materiallar dolzarbligi, tahliiliy yondashuv, asarning badiiyligi, mustaqilliy g'oyasining ifodasi, talqinning o'ziga xosligi kabi mezonlar asosida besh ballik tizim bo'yicha baholandi. — Mazkur tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritishim menga kutilmaganda sovg'a bo'ldi, — deydi “Televideniye va radio ijodkorlarining eng yaxshi materiallari” nominatsiyasida 1-o'rinni olgan “Nurafshon TV” telekanali maxsus muxbiri Gulnora Otajonova. — Telekanalimiz tashkil topganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, salmoqli turkum ko'rsatuvlari bilan jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Bugun jamiyatimizdagi zamon qahramonlari, qishloqning mehnatkash va tanti odamlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning hayotimizdagi o'rni hamda jaddid bobolarimiz haqida va boshqa bir qancha mavzudagi ko'rsatuvlar tayyorlab tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etib kelyapmiz. Xalqimiz e'tiboriga taqdim etmoqchi bo'lgan eng sara ko'rsatuvlarimiz hali oldinda. Bugun so'z erkinligi va jurnalistlarga yaratib berilayotgan



sharoit va maydon yangi O'zbekistonda OAV xodimlari uchun ulkan imkoniyatlar debochasi deb bilaman.

Davrnig ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy qiyofasini, yutuq va muammolarini, jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda internet jurnalistikasida faoliyat olib borayotgan muxbirlar tahliiliy maqolalari, videomateriallari orqali ko'rsatib berayotganini ta'kidlash joiz.

— Yoshlar qalbi va ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'urumi tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir, — deydi “Internet jurnalistikasi” nominatsiyasida 1-o'rinni olgan ishonch.uz sayti jurnalisti Maftuna Karimova. — Bu vazifani bajarishda tarix muhim rol o'ynaydi. Ushbu tanlovga XIX va XX asrdagi siyosiy evrilishlar, milliy o'zlik, jaddilarning va boshqa tarixiy shaxslarning hayoti hamda tariximizda bo'lgan

muhim voqea-hodisalar haqidagi materiallarim bilan qatnashdim. Bu orqali boy tariximizni keng targ'ib qilishga, jamiyatimizda odamlarni mushohadaga chorlashga, fikr ko'lamin kengaytirishga harakat qilmoqdaman. Ijodkor uchun eng katta kuch bu — xalqning e'tibori. Shu bilan birga, mana shu kabi tanlovlar ijodkorga yanada kuch-g'ayrat bag'ishlaydi va o'z kasbini yanada mukammal egallashga undaydi.

Mazkur tanloving an'anaviy o'tkazilishi ijodkorlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish, iqtidor sohiblarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Bu, o'z o'mida, xalq birlamligi, o'zlik himoyasi bo'lgan milliy kontentni yaratishda o'ziga xos rag'bat bo'lishi shubhasiz.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



YURTINI SEVGAN XALQ HECH QACHON KAM BO'LMAYDI

Bugunning gapi



Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tashabbuslar qanot yozadigan zamonda yashayapmiz. Qo'l urgan ishimiz besamar ketmayapti. Sa'y-harakatlarimiz yurtni yashnatishga xizmat qilyapti, innovatsiyalarimiz, yangi g'oyalарimiz mo'l-ko'l sarmoya olib kelyapti. Albatta, bunday imkoniyatlar yaxshi yashashga intilayotgan xalqimiz ong-u tafakkurini boyitib, endi faqat o'zini emas, yurt taraqqiyotiga xizmat qilishdek vatanparvarlik tuyg'ularini hadya etmoqda.

Ko'ngilni yayratadigan, dillarga quvonch olib kiradigan yangilik shuki, bugun tadbirkorman degan insonning yelkasiga o'tfob tegdi. Ilgari qo'yni puch yong'oqqa to'ldirilgan bo'lsa, bugun qalbi yangi g'oyalar bilan limmo-lim. Hayotning kuchli zarbalaridan esankirab, boshlagan ishini davom ettirishga ikkilanib qolgan davrlar o'tdi. Endi ularning oltin avlodi yuzaga keldi. Nega oltin avlod deyaпmiz? Negaki ishbi-larmon ahli borki, davlatimiz tomonidan yaratilgan yangi tizimdan kuch olib, o'z biznesini muvaffaqiyatli rivojlantirib, dunyoni lol etmoqda.

“Soya”da ishlashga hojat qolmayapti

Xo'sh, bu tizimning afzalliklari nimadan iborat? Bu davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan va hayotga izchil tatbiq etilayotgan yangicha formatdagi yuzma-yuz ochiq muloqot hamda unda tadbirkorlarning har bir fikri, taklifi yoki muammosi o'rganilib, hal etilayotgani bilan chambarchas bog'liq. Muhimi, tadbirkor bugun o'z muammolari bilan

Endilikda “soya”da ishlab, daromadini davlatdan yashirib, nimadiri topaman degan biznes vakillari o'z faoliyatlarini qonun asosida ishlashga o'tkazishga rag'bat yaratildi. Shuncha imtiyoz bo'la turib, pana-pastqam joyda o'zini ko'rsatmay yurish uyat ekanini anglash vaqti keldi. Axir soliq tekshiruvlarining o'zi o'tgan yilga nisbatan 2 karra, kameral tekshiruvlar 3 karra qisqargan sharoitda “soya”da ishlash ularga nima naf beradi?

Ko'pchilik kutganidek, ochiq muloqotda Prezidentimiz 5 ta muhim yangi tashabbusni



o'ralashib qolayotgani yo'q. Qaddini kerib, hayotga ochiq ko'z bilan qaramoqda. Endi ular elni, yurtni taraqqiy ettirish, yangi O'zbekiston atalmish ulkan imoratini tezroq barpo etish yo'lida jon kuydirmoqda.

Fikrlarimizni Prezidentimizning to'rtinchi bor tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqoti bilan davom ettiradigan bo'lsak, bu yangi format tadbirkorni haqiqiy ma'noda kashf etdi, yangidan tug'ilgandek bo'ldi ular. Bu anjuman joriy yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazildi. Tadbirkorlik migratsiyasi Qoraqalpog'istondan boshqa hududlarga ko'chayotgan bir sharoitda davlatimiz rahbari bu qadimiy va go'zal zaminni yashnatish uchun ishbi-larmonlarni chorladi. Shu hududga investitsiya kiritish orqali nafaqat Orolbo'yi mintaqasini, balki o'zlarining ham biznesini avj oldirish mumkin ekanini tahlil qilib berdi.

Ishbi-larmonlar nega ochiq muloqotni intilqik bilan kutadi? Bu savolga davlatimiz rahbari tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslarni ilgari surayotgani misolida javob topish mumkin. Prezidentimiz ochiq muloqotdagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, bugun tahlikali va murakkab zamonda yashayapmiz. Shunga qaramasdan, iqtisodiyotimiz o'sib borayotganini dunyodagi nufuzli tashkilotlar e'tirof etmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshganini tasdiqladi. Ilgari “tekshir-tekshirlar” tufayli 60 foiz tadbirkor bir yilga ham yetmay faoliyatini to'xtatib qo'yardi. Hozirda uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizga yetib, ularning soni ilk bor 300 mingtadan oshirdi. 100 mingdan ziyod shunday yakka tashibdagi tadbirkor faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yilning o'zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yildagiga nisbatan 25 foiz ko'payib, 986 trillion so'mga yetdi.

ilgari surdi. Bu tashabbuslar mamlakatimizda ishbi-larmonlik yanada ravnaq topishiga ko'makdosh bo'lishiga shak-shubha yo'q. Buni anjumanda ishtirok etgan biznes vakillari ham yurakdan his qilib turdi.

Faktoring ommalashsa, moliyaviy resurslar ko'payadi

Birinchi tashabbus — kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish bilan bog'liq ekani ko'pchilik kutgan yangiliklardan biri bo'ldi.

Tan olish kerak, kam va biznes sohasi vakillari o'r-tasidagi munosabatlarga ilgari “darz” ketgan bo'lsa, keyingi yillarda hamkorlik qonuniy asosda tiklandi. Shu jihatdan endi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda barcha banklar va mikroloyiha tashkilotlari ishtirok etishi belgilandi. 100 million so'm kredit bundan buyon kichik va o'rta biznes tuzilmalari uchun yetarli mablag' emas. Shu bois, mikrokreditlar miqdori 300 million so'mga yetkaziladi. Quvonarlisi, 100 million so'mgacha qismiga garov talab qilinmaydigan bo'lgani uchun minglab kichik va o'rta biznes vakillari do'ppisini osmonga otgan bo'lsa ajab emas.

Endi ishbi-larmonlar vaqt, mablag' sarflab, poytaxtga shoshmaydi. Tadbirkorlik kompaniyasining filiali har bir viloyatda tashkil qilinadi. Kompaniya tadbirkorlarni “chig'iriq”dan o'tkazib, eng salohiyatlarini aniqlaydi. Mikromoliya xizmatlarini qo'llab-quvvatlashda davlat bosh islohotchi bo'ladi. Ularga yana 1 trillion so'm resurs beriladi. Ustav kapitali 50 milliard so'm bo'lgan mikromoliya banklari ochiladi. Ularning asosiy vazifasi kichik va o'rta biznesga xizmat ko'rsatishga qaratiladi.



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**FIKRIMIZNI MUXTASAR QILIB SHUNI
AYTMOQCHIMIZKI, TADBIRKORLIK RIVOJ
TOPGAN YURTIDA BARAKA BO'LADI. AHOLI
TURMUSH DARAJASI YUKSALADI, SHAHAR-U
QISHLOQLARIMIZ OBOD, KO'RKAM TUSGA KIRADI.
BUNI JONAJON YURTIMIZ MISOLIDA KO'RIB, BILIB,
HIS QILIB TURIBMIZ. OCHIQ MULOQOTDAGI YANGI
IMTIYOZ VA YENGILLIKLAR MAMLAKATIMIZDA
BIZNES SOHASI YANADA RIVOJ TOPISHIGA
MUSTAHKAM ASOS BO'LADI.**

Tadbirkorni qiynayotgan masalalardan biri kredit olish uchun garov topishdir. Bu ko'plab kichik va o'rta biznes vakillari uchun muammo bo'lib kelayotgani bor haqiqat. Garov talab qilmaydigan eng qulay instrument faktoringdir. Faktoring xizmatiga bozorda talab katta. Faktoring ommalashsa, tadbirkorlarga aylanma uchun 20 trillion so'm, eksportchi korxonalarga 1 milliard dollar qo'shimcha moliyaviy resurslar hosil bo'ladi. Bu qulay usul biznes sohasi vakillari faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni anjumanda ishtirok etgan ishbi-larmonlar mamnuniyat bilan olqishladi.

O'tgan oyda mikromoliya tashkilotlariga islomiy shartlar asosida xizmat ko'rsatishga ruxsat berilgani ma'lum qilindi. Endilikda yangi qonun loyihasi qabul qilinsa, islom moliyasi bilan banklarimiz ham ishlay boshlaydi. Yangi moliyaviy xizmat orqali investorlarni jalb qilish tezlashadi. Yangilik esa yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi. Ezgu amallarga xizmat qiladi.

Yana bir loyihaga to'xtaladigan bo'lsak, davlat banklari tomonidan ajratilayotgan 92 trillion so'm kredit resurslarining 30 foizini 10 ta yirik davlat korxonalari olib qo'yayotgani uchun endi bunday mablag'larni yirik korxonalarga berish amaliyotidan bosqichma-bosqich voz



kechiladi. Mablag'ning asosiy qismi xususiy biznes vakillariga ajratiladi. Bu ham kichik va o'rta biznesni himoya qilish borasida qulay imtiyozlardan biri, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Ishlab chiqarish to'xtamasa, qarzdorlik tezroq uziladi

Ikkinchi tashabbus — biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlashga oid, ochiq muloqot doirasida kelib tushgan murojaatlarning ko'pi yer ajratishga bog'liqligi bildirildi.

Shundan kelib chiqib, auksionda sotib olingan yer uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash bekor qilinishi aytiladi. Hududlarda sotilgan yer uchun xarid summasini ma'lum muddatlarda bo'lib-bo'lib to'lashga imkoniyat yaratilishi ham tadbirkorlar dilidagi gap bo'ldi.

Qishloq joylarda yerni bir faoliyatdan ikkinchisiga o'zgartirish borasida muammolar juda ko'p. Bunday tartib hali belgilanmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, bog' o'mida issiqxona qilaman, degan tadbirkor ishini nimadan boshlashni, kimga murojaat qilishni bilmaydi. Endilikda tadbirkorlar uchun bunday tartib aniq belgilab beriladigan bo'ldi. Chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik sohalar, meva-sabzavotni qayta ishlovchilarga ular joylashgan bino-inshootlar ostidagi yerlar uchun sanoat toifasi stavkasida yer solig'i hisoblanayapti. Klassifikatomi joriy qilish orqali ular ham qishloq xo'jaligi yerlari kabi soliq to'lashga o'tadi.

Barcha sanoat korxonalari elektr va gazga o'rnatilgan limit oshib ketsa, to'lov 2 karra ko'p undirilayotganidan norozi bo'lmoqda.



Sanoatimizning o'sishiga ta'sir qiladigan bunday chekllovlar qisqartirilishi belgilandi.

Endi elektr va gaz iste'moli limitdan 20

munosabatlarni yanada iliqlashtiradi. Axir bir korxona to'xtasa, qanchadan qancha ishchi-xizmatchi maoshsiz qoladi. Oilalar, farzandlar ta'minotida tanqislik yuzaga keladi. Shuning uchun Prezidentimizning bu fikrini ishbi-larmonlar juda katta mamnuniyat bilan kutib oldi.

Energetika sohasida xususiy sektorga keng yo'l ochiladi

Uchinchi tashabbus — ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatimizning yetti oylik eksporti 13 foizga o'sib, 10 milliard dollardan oshdi, avval eksport qilmagan 1610 ta korxona tashqi bozorlarga chiqdi. Jahon savdo tashkilotiga 2026-yilda a'zo bo'lish bo'yicha katta qadamlar qo'yilayotgani bu raqamlarda o'z aksini topmoqda.

Davlatimiz rahbari yon qo'shnilarimizning yillik importi 90 milliard dollar bo'lgani bilan bizning undagi ulushimiz atigi 4 foiz ekani yoki MDH doirasida erkin savdo rejimi o'rnatilgani bilan hamdo'stlikdagi 500 milliard dollarlik importda bizning hissamiz 2 foizga ham bormasligini misol qilib keltirdi.

Shartnoma muddatidan qat'i nazar, sotib olingan uskuna 180 kunda yetib kelmasa, muddati o'tgan debitor qarzdorlik yuzaga keladi. Tadbirkorlar uskuna kelmaguncha boshqa import shartnomalariga to'lovni amalga oshira olmaydi. Shu munosabat bilan endilikda chetdan uskuna va butlovchi qism olib kelishda shartnoma muddati buzilmasa, muddati o'tgan qarzdorlik bo'lmasligi belgilandi. Shuningdek,

xazirali 172 ta kon ham tadbirkorlik uchun ajratiladi.

E'tibor beryapsizmi, tadbirkorning qo'li kun sayin “uzun” bo'lib bormoqda. Ulariga ishchong bildirilyapti. Ishchong esa rag'bat, mukofot va samoyadir. Bu ishchorni tadbirkorlarimiz oqlashiga shak-shubha yo'q.

“Shaffof qurilish” tizimini tadbirkorlarning o'zi yuritadi

To'rtinchi tashabbus — xizmatlar sohasiga yangi turki berish masalasi bo'lib, bu sohani rivojlantirish orqali xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lishi uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. O'zbekistonda band aholining 52 foizi xizmatlar sohasida ishlayapti. Ishlab turgan korxonalarning 68 foizi ham xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Xizmatlarda ulushi eng katta sohalardan biri bu — umumiy ovqatlanish va mehmonxona xizmatlari. Davlatimiz rahbari ularning eng katta muammosi QQS va ishchilar hisobini yuritish ekanidan xabardorligini ta'kidladi.

Shu bois, 1-yanvardan umumiy ovqatlanish korxonalariga QQSnig bir qismi tadbirkorga “keshbek” sifatida qaytarib beriladi. Bunda oylik aylanmasining 60 foizini naqd pulsiz amalga oshirgan korxonalarga QQSnig 40 foizi to'langan zahoti qaytariladi. Agar naqd pulsiz aylanma 60 foizdan kam bo'lsa, “keshbek” 20 foiz bo'ladi. QQS to'lashga o'tgan restoran va kafelarga foyda solig'i 2 karra kamayadi. 1-dekabrden bu korxonalar naqd pulga sotib olgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kirim qilishda hech qanday hujjat talab etilmaydi. Xuddi shu kabi 1-oktyabrden mehmonxona va turopertorlarga ham to'langan QQSnig 20 foizi “keshbek” qilib beriladi.

So'nggi ikki yilda bozorga kirishdagi 13 ta eksklyuziv huquq bekor qilinganidan xabardorsiz. Yaqinda yana 7 tasi bekor bo'lishi aytiladi. Bu orqali 1,5 mingdan ortiq tadbirkor uchun bozorga kirish imkoniyati yaratiladi. Misol uchun, mehmonxona faoliyatini sertifikatlash bilan akkreditatsiyasi bor barcha korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'ladi. Yoki Qurilish vazirligidagi “Shaffof qurilish” tizimi orqali tender savdolari uchun hujjatlarni faqat vazirlik qoshidagi konsalting markazlari tayyorlab beryapti. 1-oktyabrden xuddi tadbirkorlik reytingi kabi “Shaffof qurilish” tizimini tadbirkorlarning o'zi yuritadi. Konsalting markazlari funksiyalari to'liq xususiy sektorga o'tkaziladi.


Ochiq muloqot, tom ma'noda, tadbirkorlarning ko'nglini o'stirdi. Ko'ksida g'urur va faxr hissini uyg'otdi.

Biznes vakillariga soliq to'lashda yengillik beriladi

Beshinchi tashabbus — biznes uchun to'siq va g'ovlarni yanada qisqartirish hamda tadbirkorlarni jinoiy javobgarlikka tortishni yanada liberalashtirish muhimligiga qaratiladi. Masalan, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, degan jinoyat turi bor. Bunda tadbirkor to'lamagan soliq 100 million so'mdan oshsa, jinoyatchi bo'lib qolmoqda. Shu bois, soliq to'lamaganlik uchun tadbirkorga jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'ladigan miqdorni 2 baravargacha oshirish taklif qilindi.

Endilikda garovdagi mulkni savdoga chiqarishdan oldin uning hozirgi bozor qiymati aniqlanadigan, qaytmagan qarzdorlik garov qiymatining 15 foizidan kam bo'lsa undiruv mulkka qaratilmaydigan tizim yaratiladi. Bank mijoziga qarzni boshqa manba hisobidan qoplashga imkon beradi. Bugun ham tadbirkorlar ma'muriy to'siq, byurokratiyaga uchrayaptimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Ammo tan olish kerak, bunday salbiy illatlar keskin kamaydi. Mansabdor shaxslar ishbi-larmonga “siz” deb murojaat qiladigan, qo'lini ko'ksiga qo'yib kutib oladigan bo'ldi. Tadbirkorning martabasi oshib, fikrini erkin va mustaqil bildiraypti. Lekin hamma joyda ham shunday, deb bo'lmaydi. To'siq va g'ovlarni esa tadbirkor o'z bilimi, salohiyati va mehnati bilan yengib o'tishi kerak. Chunki ular ortida mamlakat rahbari turibdi. Buni Prezidentimiz ochiq muloqotda yana bir bor aytib o'tdi: “Hurmatli tadbirkor va ishbi-larmonlar, hech narsadan cho'chimang. Biling, ortingizda Prezident turibdi!”.

Fikrimizni muhtasari qilib shuni aytmoqchimizki, tadbirkorlik rivoj topgan yurtida baraka bo'ladi. Aholi turmush darajasi yuksaladi, shahar-u qishloqlarimiz obod, ko'rkam tusga kiradi. Buni jonajon yurtimiz misolida ko'rib, bilib, his qilib turibmiz. Ochiq muloqotdagi yangi imtiyoz va yengilliklar mamlakatimizda biznes sohasi yanada rivoj topishiga mustahkam asos bo'ladi. Zotan, barpo etilayotgan yangi O'zbekistonning har bir g'ishtini mehr bilan, muhabbat bilan qo'yiladi. Chunki yurtimizda olib borilayotgan hayotiy islohotlar odamlarning Vatanga muhabbatini, sadoqatini yuksaltirmoqda. Vataniini sevgan xalq esa hech qachon kam bo'lmaydi.



PARALIMPIYA HARAKATI

Jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, sabr-bardoshli, mustahkam irodali, matonatli insonlar oramizda ko'p. Ularning ishlashi, ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi, jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishi va munosib o'rin topishi uchun imkoniyat yaratish doim dolzarb masala bo'lib kelgan.



Olimjon SHODIYEV,
Paralimpiya sport turlari bo'yicha
mutaxassislarni tayyorlash
instituti direktori

Inson qadri, uning huquq va manfaatlari mufassal ta'minlanayotgan yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ayniqsa, gender tenglik sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Nogironligi bo'lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan xotin-qizlarning huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qadriyatlariga va normalari, shuningdek, mamlakatimizning bir qator qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiq ta'minlanmoqda. Ularga boshqa sog'lom insonlar kabi teng imkoniyatlar yaratilgan. Xotin-qizlarning qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoit va sohaga qaratilayotgan ulkan e'tibor natijasida adaptiv sport bilan shug'ullanuvchilar soni sezilarli darajada oshib borayotgani fikrimizning dalilidir.

Bu borada O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) dagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan hamkorlikda nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni adaptiv ommaviy sportga keng jalb qilish, ommaviy sport tadbirlarini muntazam tashkil etish borasida salmoqli ishlar yo'lga qo'yilgan. Nogironligi bo'lgan xotin-qizlar o'rtasida sportning ommaviyligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, har haftaning dam olish kunlari mahallalarda turli sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa, qishloq joylardagi

NUFUZLI MUSOBAQALARDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI ORTMOQDA



mahallalar, umumta'lim hamda sport maktablari bilan hamkorlikda sportning bir necha turi bo'yicha musobaqalar, spartakiadalar, oilaviy sport tadbirlari uyushtirilib, ularga nogironligi bo'lgan barcha xotin-qizlar jalb etilmoqda. Xususan, so'nggi bir yil ichida "Sport hamma uchun", "Besh tashabbus paralimpiadasi",

etilib, paralimpiyachilarning o'z hayot yo'llarida qiyinchiliklarni qanday yengib o'tgani haqida suhbat va uchrashuvlar o'tkazildi.

O'tgan besh yil davomida paralimpiya sport turlari bilan muntazam shug'ullanuvchi xotin-qizlar soni 102 nafardan 1648 nafarga, ularni shug'ullantirayotgan xotin-qiz trenerlar 28 nafardan 236 nafarga yetdi. Paralimpiya sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar tarkibida 284 nafar xotin-qiz nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etmoqda.

Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlaridan o'tkazilayotgan O'zbekiston chempionati, kubok musobaqalarida saralab olinayotgan iqtidorli xotin-qiz sportchilarimizning xalqaro nufuzli musobaqalardagi ishtiroki yuksak g'alabalarga yo'l ochayotir. Sani yil sayin kengayib borayotgan paralimpiyachilarning erishayotgan yutuqlar salmog'i tashiga sazovor. "Tokio — 2020" XVI yozgi Paralimpiadasida qatnashgan 48 sportchining 21, "Xanchjou — 2022" IV Paraosiyo o'yinlarida ishtirok etgan 108 sportchimizdan 45 nafarini xotin-qizlar tashkil etdi.

Paralimpiyachilar orasida dunyo tan olgan matonatli xotin-qizlarimiz ham talaygina. 2023-yil yakunlariga ko'ra, para yengil atletika bo'yicha "Tokio — 2020" yozgi Paralimpiya o'yinlari sovrindori, jahon chempioni, "Xanchjou

— 2022" Paraosiyo o'yinlari g'olibi Asila Mirzayorova qit'aning "Eng yaxshi ayol para atleti" degan sharaflil nomga sazovor bo'ldi.

Para taekvando bo'yicha Paralimpiya, Paraosiyo o'yinlari g'olibi, jahon chempioni, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibasi Guljanoy Naimova, para yengil atletika bo'yicha 2 karra Paralimpiya o'yinlarig'olibi, Paraosiyo o'yinlari sovrindori, jahon chempioni, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi", "O'zbekiston iftixori" faxriy unvonlari sohibasi Safiya Burhonova, yana bir para yengil atletikachi Paralimpiya, Paraosiyo o'yinlari g'olibi, jahon chempionati sovrindori, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibasi Mohigul Hamdamova, Paralimpiya o'yinlari, jahon chempionati sovrindori, Paraosiyo o'yinlari g'olibi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni sohibasi para yengil atletikachi Nurxon Qurbonova nufuzli musobaqalarda O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarayotir.

Bugun muhim musobaqa oldida turibmiz. Joriy yilning 28-avgust — 8-sentabr kunlari Parij shahrida navbatdagi Paralimpiada o'yinlari bo'lib o'tadi. Mazkur nufuzli musobaqada ishtirok etadigan yurtimiz vakillarining 45 foizi ayollar ekani juda qvonarli.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sport bilan shug'ullanishi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlari hamda ayollarimizning ham xizmatlari salmoqli. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasida fan doktori Laylo Sobirova, falsafa fanlari doktorlari Zulfiya Palibayeva, Lola Davlatovalar golbol va para voleybol sport turlaridan milliy terma jamoalarda trenerlik qilish barobarida ilmiy tadqiqot ishlari ham to'xtatgani yo'q.

Qvonarlisi, keyingi yillarda sport nogironligi bo'lgan xotin-qizlar hayotining ham ajralmas qismiga aylanmoqda. Qo'lg'a kiritilayotgan yutuqlar mamlakatimizda nogironligi bo'lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy ko'mak berish, ularning bilim olishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z qiziqish va intilishiga mos kasb-hunar egallashi, sport bilan shug'ullanishi uchun doimiy e'tibor qaratilayotganining yorqin ifodasidir.

BILIM VA SALOHIYAT

YANGI O'ZBEKISTON KELAJAGINI BARPO ETISHDA IKKI MUHIM OMIL

Ta'lim

Bugun yurtimizga, hayotimizga razm solgan kishi borki, yangilanayotgan O'zbekiston, undagi o'zgarishlar, qisqa muddat ichida amalga oshirilgan islohotlarning guvohi bo'ladi. O'zbekiston har tomonlama rivojlanayotgan, o'z salohiyatini yangi bosqichga olib chiqayotgan mamlakat sifatida tan olinmoqda. Har bir sohada, jumladan, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, qamrov va infratuzilma kabi muhim yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimizning bu yo'ldagi qat'iyati va tashabbuskorligi nafaqat mamlakat ichida, shuningdek, xalqaro maydonda ham e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda.



Sherzod NE'MATOV,
fizika-matematika
fanlari doktori,
professor

Islohotlar nafaqat mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, balki xalqimizning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib, investitsiyalar hajmi oshishi barobarida yangi texnologiya va innovatsiyalar keng joriy etilayotir. Shu bilan birga, ijtimoiy sohada ham katta o'zgarishlar ro'y bermogda — aholi uchun qulay sharoitlar yaratilishi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining zamonaviylashtirishiga bunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning yangilanayotgan qiyofasi mamlakatimiz rahbariyatining

puxta o'yilgan strategiyasi, xalqimizning fidokorona mehnati va kelajakka bo'lgan ishonchi natijasidir. Bu yo'lda qo'yilgan har bir qadam, amalga oshirilgan har bir islohot xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, yurtimizni yanada yuksak marfalarga olib chiqmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayoni barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilishi bilan birga olib borilmoqda. Yutuqlarimiz, eng avvalo, huquqiy va demokratik institutlarning mustahkamlanishi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi hamda inson huquq va erkinliklari kafolatlanishida o'z ifodasini topyapti.

Mamlakatimiz yoshlari uchun zamonaviy bilim va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlari kengayib, ularga xalqaro darajadagi bilimlar berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Yuz berayotgan yangilanishlarni Shahrisabz davlat pedagogika instituti misolida ham ko'rishimiz mumkin. Institutda talabalarning ta'lim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, ta'lim sifatini oshirish maqsadida eng zamonaviy texnologiyalar va o'quv dasturlari joriy etilgan bo'lib, darslar interaktiv metodlar asosida olib boriladi. Talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lmoqda, balki amaliy mashg'ulotlar orqali o'z kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlamoqda.

Instituting ilmiy salohiyatini oshirish, professor-o'qituvchilarning malakasini yuksaltirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlangan. Bugungi kunga qadar 25 ta xorijiy oliy ta'lim muassasi bilan hamkorlik memorandumlari imzolaniib,



xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy dasturlar va loyihalar doirasida talabalar, professor-o'qituvchilar tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Alohida ta'kidlash kerakki, institutda zamonaviy ko'rinishga ega 1500 o'rinni o'quv binosi, 500 o'rinni talabalar turar joyi qurilmoqda. Bu inshootlar talabalar uchun qulay ta'lim muhitini ta'minlab, ularning samarali o'qishi va har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Talabalar turar joyida yashash sharoitlari ham zamonaviy talablarga javob beradi.

Oliyoghdagi bu kabi o'zgarish va yangilanishlar yoshlarning kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishi, mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish yo'lida tashlangan katta qadamdir.

Umuman olganda, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi bu yutuqlar nafaqat bugungi kunimiz, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevordir. Shu bois, yurtimizning har bir fuqarosi bu ulug'vor jarayonda faol ishtirok etishi, o'z hissasini qo'shishi zarur. Buning uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish hamda jamiyatimizning har bir a'zosi muntazam o'z ustida ishlashga undash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizni global maydonda yetakchi davlatlar qatoriga qo'shish uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh

qilish, yangi texnologiyalarni keng joriy etish va ilm-fanni rivojlantirish lozim. Bunda yoshlarga sifatli ta'lim berish, ularni innovatsion va ilmiy faoliyatga jalb qilish, shuningdek, ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga ko'maklashish talab etiladi.

O'zbekistonni yanada yuksaltirish yo'lida barcha sohalarida ochiqlik, shaffoflik va qonun ustuvorligini ta'minlash, adolati jamiyatni barpo etish ham zarur. Fuqarolar o'rtasida milliy birlik va hamjihatlikni mustahkamlash, madaniyatimizni va boy tarixiy merosimizni asrab-avaylash, xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bu yo'ldagi muhim vazifalardan biridir.

Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish ham kelajak avlod uchun sog'lom va barqaror yurt yaratish yo'lida muhim qadamlardan sanaladi. Shu bilan birga, aholi farovonligini oshirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va barcha uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish ustuvor vazifalar qatorida turadi.

Xalqimiz farovonligi, mamlakatimiz taraqqiyotining yanada yuksalishi har birimizning birlashishimiz, kelajakka bo'lgan ishonchimiz natijasida amalga oshadi. Bu yo'lda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, Vatanimizni yanada buyuk va obod qilish uchun o'z salohiyatimiz va bilimimiz bilan harakat qilishimiz zarur.

Yangicha yondashuvlar TERMIZDA "MALAYZIYA TEXNOLOGIYASI" Innovatsion tumanlar tajribasi keng ommalashadi

Har kuni innovatsiya bilan bog'liq turli gap-so'zlar quloqqa chalinadi. Innovatsiya o'zi nima ekanligi-yu qanday maqsadlarga xizmat qilishi, mohiyati haqidagi tushunchalar kishilar ongida ozmi-ko'pmi shakllanib ulgurgani ham rost. Innovatsiyaning huquqiy mazmun-mohiyati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi davlat tomonidan yangi texnologiyalarni rivojlantirish ortidan yanada boyib, sayqallanib boryapti.



Xo'sh, innovatsion tuman nima degani?

Bugun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan har bir hududda alohida tanlab olingan tumanlarni innovatsion hududga aylantirish ishlari boshlangan. Surxondaryo viloyatida ham bugunga qadar 2 ta tuman innovatsion hududga aylantirildi. Dastlab Oltinsoy, so'ng Termiz tumanida 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida muayyan ishlar bajarilayapti.

Oltinsoy tumanidagi "Yashnobod" innovatsion texnopark qoshida "Yoshlar innovatsion loyihasi amaliyotiga qo'shilish" tashkil etilgan. Bu yoshlarning innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish, ilmiy va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish kabi vazifalarni amalga oshirishda qo'l kelayotir. Mazkur ishlab chiqarish zonasi uchun hozir Oltinsoy tumanidagi Ipok mahallasi hududidan 1,2 gektar yer ajratilib, yosh tadbirkorlar uchun alohida hudud tashkil qilindi.

Bu yerda bir necha turdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xususan, bazalt minerali asosida yuqori darajada to'ldirilgan, yuqori haroratga chidamli hamda mexanik mustahkam kompaundlar, avtomobil yo'l chiziqlari uchun polisulid polimer bo'yoq, mahalliy xomashyo asosida suv va mineral resurslarni tejovchi, yuqori bo'kuvchan va bioparchalanuvchi gidrogel, chorvachilikda yetishtiriladigan dag'al junni kimyoviy va mexanik qayta

ishlash orqali to'qimachilik sanoati uchun sifatli mayin ip ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan, biznes va ishlab chiqarish, innovatsiyaning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida Oltinsoy tumani hududida g'oyalari tayyor tijoriy mahsulotga aylantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, hududlarning ham innovatsion rivojlanishiga xizmat qilaypti.


Termiz tumanida "Malayziya texnologiyasi" asosida innovatsion usulda baliq yetishtirish loyihasi amaliyotga tatbiq etilyapti. Qiymati qariyb 640 million so'mlik loyihaning birinchi bosqichida 20 ta aylanlan sun'iy hovuzcha qurilmoqda. Shuningdek, bu yerda "Ekoturizm" loyihasi doirasida ham ishlar bajarilaypti.

— Joriy yilda baliqchilik sohasida inkubatsiya sexi, chavoq va tovar baliq yetishtirish, yuqori oqsigila boy baliq yemi, qayta ishlab va saqlash imkoniyatiga ega tizimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan baliqchilik klasteri tashkil etilmoqda, — deydi tadbirkor Nurmuhammad Narhamedov. — Malayziya texnologiyasi asosida yangi intensiv suv havzalari barpo etildi. Ushbu texnologiyani keng joriy qilishdan maqsad shundaki, an'anaviy usuldan ko'ra bir necha barobar ko'p baliq yetishtirish imkoniyati mavjud. Suvni tejash, ko'proq baliq yetishtirish imkoniyati borligi sababli loyiha o'zlashtirilmoqda.

Innovatsion tumanida "aqlli" qishloq xo'jaligi — agrar sohada yangi, yuqori mahsuldor va samarali ekin turlarini yaratish bo'yicha innovatsion loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, mahalliy bozorda talab yuqori, eksportkor 7 ta yangi seleksion navni yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Loyiha doirasida ish o'rnlari ham ochilyapti.

Bugun innovatsion tumanlar davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadamlikka intilmoqda. Ayni jihat esa yuksak taraqqiyotga erishishning asosiy sharti ekanini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Qolaversa, innovatsion tumanlarda to'plangan boy tajribani boshqa hududlarda qo'llash orqali kafolati iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



OLAMARO EZGULIK VA TINCHLIK TARANNUMI KO’HNA VA AZIM SAMARQAND SHAHRIDA “SHARQ TARONALARI” DAVOM ETMOQDA

Festival shukuhi

Bugun dunyo ahli yaxshilikka, ma’rifat targ’ibotiga har doimgidan ham ko’ra ko’proq muhtoj. Ha, zamonamizga kelib xalqaro maydonda jiddiy o’zgarishlar kuzatilmoqda. Dunyoning geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitekturasini o’zgarayapti. Egamanlik kayfiyatidagi kuchlar xalqlarning azaliy qadriyatlariga, o’zligiga daxl etishni, shu orqali boshqarishni maqsad qilgan. Shunday fursatda mamlakatimiz ezgulik tashabbusini ilgari surayotgani quvonarli.

“Sharq taronalari” festivalining ochilish marosimini, ertaknamo qiyofa kasb etgan Registon maydonini kuzatib turib, ko’ngildan shunday o’ylar o’tdi. Ayniqsa, turli mamlakatlar bayrog’i bir qator bo’lib hilpirab turishi kishi ko’zini quvontirdi. Ular go’yo tenglik, hurlik va do’slikni targ’ib etayotganday.

Darhaqiqat, ko’hna va azim Samarqand yana dunyo musiqa ustalari va san’at muxlislarini bag’riga chorladi. UNESCO shafeligidagi “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali pandemiyaga sabab 2019-yildan buyon o’tkazilmayotgan edi. O’tgan muddat ichida ishtirokchilar ham, muxlislar ham “Sharq taronalari”ni sog’ingani ular yuz-ko’zidan ko’rinib turardi.

Tadibini davlatimiz rahbari festival ishtirokchilariga samimiy tabrik so’zlari bilan ochib berar ekan, jumladan, bunday dedi: “Dunyodagi jamiki xalqlar qatori o’zbek eli ham tinchlik va osoyishtalikni yuksak qadrlaydigan, oqko’ngil va bag’rikeng xalqdir. Yangi O’zbekiston tashqi siyosatining tub mohiyatini

ham turli davlatlar bilan tinchlik va hamkorlik, do’stona munosabatlarni rivojlantirish tamoyili tashkil etadi”.

Darhaqiqat, tinchlik, do’stona munosabatlar bilangina dunyo taraqqiy etishi mumkin. Aksini bo’lganida eng qudratli davlatlar ham tanazzulga yuz tutgan. Bunga ko’hna tarix ko’p bora guvoh bo’lgan. Xalqlar o’rtasidagi iliq munosabat esa san’at orqali oson o’tmatiladi. Ona allassidi yoqimli musiqani hatto dushman tomonidan eshitisangiz ham bir lahza tin olasiz. Beixtiyor unga jon qulog’ingizni tutasiz. Bugun dunyo ahli, san’atga qiziqqan inson borki, diqqatini yurtimizga qaratgani shundan.

Yana bir muhim jihat, yurtimizda nafaqat “Sharq taronalari”, balki xalqaro maqom san’ati,

Festival doirasida “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg’unlashuv tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo’lib o’tmoqda. Kecha boshlangan anjumanda 32 xorijiy davlatdan sohaning 46 nafar yetuk mutaxassisi tashrif buyurgan.



Hakim YO’LDOSHEV olgan suratlar.

baixshichilik san’ati, hunarmandlik, folklor va raqs san’ati bo’yicha “Buyuk ipak yo’li”, “Lazgi” xalqaro festivallari kabi yirik madaniy tadbirlar muntazam o’tkazilmoqda. Mana shuning o’ziyoq O’zbekistonning ezgulikka chorlovchi da’vati. Shu ma’noda, “Sharq taronalari” dunyo taronalariga aylandi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Buni festival ishtirokchilari ham bot-bot takrorlamoqda. Mehmonlar “Sharq taronalari” dunyo san’atsevarlari qalbidan chuqur o’rin olganini ta’kidlamog’da. Markaziy Osiyodagi eng katta festivallardan biri ekan, u milliy musiqa san’atida erishilgan yutuqlarni keng ommaga ko’rsatish, millatlar madaniyat va an’alarini asrash va rivojlantirish, iqtidorli, yosh sozanda va xonandalarni qo’llab-quvvatlash, tinchlik, do’slik va o’zaro bag’rikenglik g’oyalarni targ’ib qilishda alohida o’rni borligini tan olmoqda.

Yurtimiz osmoni uzra yana jaranglagan qadim ohanglar marosimga o’zgacha fayz berdi. Yer yuzining sayqali, Sharqning nodir gavhari Samarqand butun bo’y-basti bilan betakror

O‘zbek dutori dilimni zabt etgan

Tanya MERCHANT,
Kaliforniya universiteti
professori:

— Londonda magistraturada o’qiyotgan paytimda o’zbek professori, musiqashunos Aziza Sultonova bilan tanishdim. Dutori juda yaxshi chalar ekan. Aziza opa menga dutor chalishtirishni tavsiya qilgan. O’shandan buyon, ya’ni 2002-yildan dutor chalishtirishga qiziqib qoldim va shu san’atni o’rganyapman. O’zbek xalq kuylari, bastakorlik bo’yicha O’zbekiston davlat konservatoriya professori Ro’zi Xo’jayevdan saboq oldim. Malika Ziyoyevadan maqom sirlarini o’rgandim. 2008-yil o’zbekistonlik ustozlarim yordami bilan Kaliforniya universitetida dutor ansamblini ochdik. Ustozlarim talabalarimizga mahorat darslari o’tadi. Turli tadbirlar tashkil etishga yordam berishadi. Umuman olganda, mendan mehri ni ayamaydi. Ularga cheksiz muhabbatim isboti o’laroq, O’zbekistondagi ayol musiqachilar haqida kitob yozdim. Ilmiy-amaliy



konferensiyadagi ma’ruzamda dutor ansambli, Kaliforniyadagi ustoz-shogirdlik an’analari haqida batafsil to’xtalдим.

Shu o’rinda aytmoqchimanki, davlatimiz rahbarining madaniyat va san’atga yuksak e’tibori, soha vakillarini qo’llab-quvvatlashi juda ko’p yutuqlarga omil bo’lyapti. Shuning uchun men o’zbekistonlik san’at vakillari bilan hamkorlikni yanada kengaytirmoqchiman.

Texnik taraqqiyot davrida Sharq musiqasini asrab qolish shart

Sohib POSHAZODA,
Ozarbayjonda xizmat
ko’rsatgan artist:

— Torli musiqa asbobi chalaman. 2017-yilda festival Gran-prisini qo’lga kiritdim. Bu gal festivalga hakamlar hay’ati raisi sifatida taklif etilganimdan xursandman. Mehnatlarimni yuqori baholagan tashkilotchilarga katta rahmat. Imkon qadar ularning ishonchini oqlashga harakat qilaman. Shuni alohida aytishni istardimki, festivalning ochilish marosimi juda mukammal bo’ldi. Har safar bu yerda bo’lganimda o’zimni ertaklar olamida yurganday his qilaman. Zero, Registon sirli joy. Ayniqsa, ajoyib jonli musiqa yangrayotgan paytda.

Ilmiy-amaliy konferensiyada globallashuv va jadal texnologik rivojlanish sharoitida Sharq



musiqasi tamoyillari, an’alarini qanday saqlab qolish haqida fikr aytdim. Nazarimda, bu juda dolzarb mavzu. U nafaqat musiqachilarga, balki butun madaniyatga tegishli.

Hamkorligimiz madaniy aloqalar bilan mustahkam



Kyoko IVAMOTO,
Yaponiya madaniy almashinuvni
targ’ib qilish qo’mitasi direktori:

— Yurtingizga ko’p marotaba kelganman. Jumladan, baxshichilik va maqom, “Lazgi” festivallarida ham ishtirok etganman. Ammo “Sharq taronalari” festivalida ilk bor qatnashyapman. Bundan g’oyat mamnunman. Chunki “Sharq taronalari” katta madaniy hodisa. Prezidentingiz mazkur festival jahon taronalariga aylanayotganini ta’kidladi. Bu fikrni qo’llab-quvvatlagan holda faxr bilan tilga olishni istardimki, bugun Yaponiya va O’zbekiston munosabatlari yangi bosqichga ko’tarildi. Yaqindan hamkorlik qilish uchun biz xalqlarimiz urf-odatlarini va madaniyatlarini yaxshi o’rganishimiz lozim. 2018-yilda start berilgan bu jarayonda juda ko’plab yutuqlarga erishildi.

Innovatsion usullarda san’at va madaniyatni targ’ib etamiz

Xosagrarax Joti VISVESVARAYA,
UNESCOning Jahon merosi
markazi direktori o’rinbosari:

— 1997-yilda tashkil etilganidan buyon an’anaviy musiqani targ’ib qilish va asrab-avaylashda muhim rol o’ynab kelayotgan ushbu nufuzli festivalga sodiqligi uchun O’zbekiston hukumatiga chuqur minnatdorlik bildirmoqchiman. “Sharq taronalari” festivali YUNESKOning asosiy tamoyillarini o’zida mujassam etgan. U dunyo bo’ylab odamlar orasida madaniy xilma-xillik, madaniyatlararo mulohot va o’zaro kelishuvni targ’ib qiladi. Madaniyat, shu jumladan, moddiy va nomoddiy madaniy meros shaxsiyatimiz mohiyati va barqaror rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi kuchidir.

“Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv sharoitida ijodiy uyg’unlashuv tamoyillari” konferensiyasida qatnashganimdan juda mamnunman. Biz O’zbekiston uchun ham, butun mintaqaga uchun ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan tirik merosning o’ziga xos shaklini muhokama qilish uchun yig’ildik. Zero, Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek, ularning qo’shnilari madaniyati umumiydir.

Osiyo, Yevropa va Afrikadan kelgan ishtirokchilarning xilma-xilligi meni rag’batlantirsa-da, yosh avlod amaliyotchilari va mutaxassislarni taklif qilish uchun qilingan sa’y-harakatlarni alohida e’tirof etmoqchiman. Chunonchi, tirik merosni himoya qilishning asosiy jihatlaridan biri uning avloddan



avlodga o’tishidir. Tirik meros elementlari hayotiyli uni yangi tashuvchilarga yetkazish qobiliyatimizga bog’liq. Shu bilan birga, har bir avlod ushbu amaliyotni qayta tiklash va o’ziga xos boy tarixini qo’shish imkoniyatiga ega. Aynan shu omil musiqa, qo’shiqning tirik merosini kundalik hayotimizda ushlab turadi. Ular tez o’zgaruvchan muhitimiz ehtiyojlariga doimo moslashadi.

Urbanizatsiya kuchayishi bilan yangi turmush tarziga moslashish uchun bu merosni odamlarga yetkazishning turli usullari zarur bo’ladi. Biz aynan mana shunday innovatsion usullarni izlash, san’at, madaniyatni targ’ib etishni kuchaytirishni muhokama qilayapmiz.

**Sahifani
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Munajat MO‘MINOVA
tayyorladi.**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taaboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko’chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 22:55 Topshirildi — 23:40